KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARINING O‘QUV FAOLIYATIGA MUNOSABAT MOTIVATSIYASI SHAKLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Korayeva Latifa Zarifovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi(PhD)
E-mail: latifaqorayeva@mail.ru
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20465905

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o‘quvchilarida o‘quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasini o‘rganish, tadqiq, qilish usullari hamda boshlang’ich sinf o‘quvchilarida o‘quv jarayonlariga bo‘lgan munosabat motivatsiyasi dastavval maktab hayotiga qiziqish, maktab hayotini his etish maktab hayotiga ma’lum e’tiqodlarning shakllanish yo‘llari usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoy munosabat, mavzu munosabati, o‘quv faoliyat, motiv, shahs, motivation , individual.

Аннотация: В данной статье рассматривается мотивация отношения к учебной деятельности детей младшего школьного возраста, методы обучения, исследования, деятельности, а также образовательные процессы младших школьников. обсуждаются школьники. Сначала обсуждались интерес к школьной жизни, ощущения от школьной жизни, пути формирования определенных представлений о школьной жизни.

Ключевые слова: социальная установка, субъектная установка, учебная деятельность, мотив, личность, мотивация, индивидуум.

Abstract: In this article, within the framework process the motivation of attitude to educational activity in children of junior school age, the methods of learning, research, doing, and the educational processes of elementary school students are discussed. At first, interest in school life, feelings of school life, ways of formation of certain beliefs about school life were discussed.

Key words: social attitude, subject attitude, educational activity, motive, person, motivation, individual.

Kirish. Shaxsni ma’lum ezgu g’oyalar, ijtimoiy-psixologik va yuksak intellektual talablar asosida tarbiyalamay turib har jihatdan kamol topishga qodir jamiyatni qurib bo‘lmaydi. Tabiiyki, munosabat tushunchasi keng qamrovli va keng ko‘lamli tushuncha bo‘lib, uning talqini ham shu qadar keng va xilma-xildir. Shu nuqtai nazardan munosabatning turli sohalaridagi ijtimoiy psixologik mezonlari bo‘yicha tadqiqot olib borgan faylasuflar, psixologlar, sotsiologlar, psixofiziologlar, pedagoglar va qator ijtimoiy fanlarning vakillari munosabat kategoriyasining u yoki bu yo‘nalishini ilmiy jihatdan asoslab beradilar. Darhaqiqat, bugun har jihatdan omilkor, mas’uliyatli, tashabbuskor va jamiyat taraqqiyoti uchun ongli – faol ijtimoiy shaxsni tarbiyalash, undagi ilmiy salohiyatni to’g’ri yo’naltira olish nafaqat ta’limning, balki butun bir davlatning ham kelajak taraqqiyotiga daxldor bo’lgan muhim vazifalardan biridir.

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar

Ta'lim faoliyati bir xil tadqiqot yo‘nalishlariga asoslanadi va shaxsiy faollikni shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Bu yerda professor E. G‘oziyev tomonidan ko‘plab

ilmiy fikrlar bildirilgan. Masalan, hayotda insonga nisbatan sub'ektiv munosabat muammosini ijtimoiy nuqtai nazardan hal qilish uchun "inson-inson-shaxs-individuallik-sub'ekt-komillik" ierarxiyasiga amal qilish va undan qutulish zarur. insonga nisbatan sub'ektiv munosabat, ya'ni robot sifatida unda barcha xususiyatlarni shakllantirish, "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarini yaratish, har qanday sub'ekt shaxs, lekin har bir odam emas, degan muammoni hal qilish mumkinligi haqidagi noto‘g'ri nazariya. sub'ekt bo‘lib, mustaqillik, shaxsiy mavqei, qat'iyati, dunyoqarashi va ularni hayotga tatbiq etish imkoniyati insonning sub'ekt bo‘lishi kabi mulohazalar motivatsion munosabatlarni talqin qilishda muhim rol o‘ynaydi [5].. K.Obuxovskiy motivni "muayyan faoliyatga yo‘naltiruvchi maqsadli dastur" deb talqin qilsa, X.Gekxauzen "motiv – shaxs va atrof-muhit munosabatlari doirasidagi yo‘naltirilgan harakatlarni tushuntiruvchi jarayondir", deb tushuntiradi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, insonning shakllanishida muhim o‘rin tutadigan dunyoqarash, e'tiqod, ideal, xulq-atvor motivlari u yoki bu qadriyatlarga asoslanadi. bundan tashqari, qadriyatlar ijtimoiy tajriba asosida shakllanadi[1]..

Olingan natijalar va ularning tahlili.

Bolaning faoliyatiga munosabat motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi yo‘nalish tanlandi va bu yo‘nalishlar tadqiqotning umumiy maqsadiga kiritildi: birinchi yo‘nalish - maktabga munosabat motivatsiyasini o‘rganish, ikkinchi yo‘nalish. ta'lim tarkibiy qismlarining shakllanish darajalarini o‘rganish, uchinchi yo‘nalish esa shaxsning yo‘nalishini o‘rganish orqali ta'lim faoliyatiga bo‘lgan munosabat motivatsiyasini o‘rganish kompleksi tanlandi va uni operatsiyaga qo‘llash vazifasi qo‘yildi. Munosabatlar tizimi masshtabida o‘quvchilar faoliyatida shakllangan o‘quv faoliyatini tanlash jarayonida "faol-ijobiy", "ijobiy", "befarq" munosabatlar motivatsiyasining o‘rtacha umumiy, qiyosiy-tipik ko‘rsatkichlari doirasi. o‘z ichiga oladi, bu esa boshlang'ich maktab yoshidagi o‘quvchilarning xarakteriga mos keladi va bu tadqiqot maqsadiga mos keladigan ijtimoiy psixologik mezonlarni belgilaydi. ta'lim faoliyatiga munosabat motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi uchta yo‘nalish tanlab olindi va bu yo‘nalishlar uchun aniq yo‘naltirilgan usullar majmuasi ishlab chiqildi. Jumladan, birinchi yo‘nalishda maktab va o‘quv faoliyatiga umumiy munosabat motivatsiyasini o‘rganish usullari, ikkinchi yo‘nalishda, o‘quv faoliyatining tarkibiy qismlariga asoslangan munosabat motivatsiyasini o‘rganish usullari, uchinchi yo‘nalishda. , shaxsning yo‘nalishini o‘rganish orqali o‘quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasini tadqiq qilish usullari; majmua tanlandi va uni amalga oshirish rejasi ishlab chiqildi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, birinchi usullar majmuasi NG Luskanova tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan "Maktabga munosabat motivatsiyasini baholash" metodologiyasiga asoslanadi. Albatta, ushbu metodologiyadan tashqari, individual suhbatlar natijalari, anketa savollariga javoblar, maxsus kuzatishlar va kontent tahlilidan ham foydalanilgan.

Usul 10 ta vaziyatni o‘z ichiga olgan va maxsus yo‘naltirilgan anketa savollaridan iborat bo‘lib, har bir savolning javobi shartli ravishda qabul qilingan ma'lum ma'nodagi munosabat motivatsiyasi darajalarini belgilashga xizmat qiladi. SHuning uchun dastavval anketa savollari tuzilib ishtirokchilarga tarqatiladi. Tarqatilgan anketa savollarining har birida 3 tadan javob varianti mavjud bo‘lib ishtirokchidan shu variantlarning o‘ziga nisbatan yaqinroq bo‘lganini belgilash so‘raladi. Belgilab bo‘lingan anketa javoblarining haqqoniyligini bilish uchun eksperimentator savollar va ularning mazmunini yana bir bor takrorlash bilan birga har bir ishtirokchi bilan tanlangan javob yo‘nalishi doirasida individual suhbat natijalarini ham qayd etib boradi. Barchasi tugagach, eksperimentator to‘ldirilgan anketalarni terib oladi va ma'lumotlarni qayta ishlashga kirishadi.

3 - ball - o‘quvchining maktabning o‘quv jarayoniga tayyorligi va barqaror qiziqishini ko‘rsatadi.

1 – ball - Neytral javob, ya'ni "bilmayman", "bo'lib turadi", "ba'zan", "aniq aytolmayman" tarzidagi javoblar bo'lib unda maktab ta'limiga nisbatan bir muncha yuzakilik, loqaydlik ko'rinishlarining ifodalanganligi anglashiladi.

0 – ball – Maktabga va maktab ta'limiga nisbatan ijobiy munosabatning yo'qligini bildiradi.

Usul asosan maxsus tuzilgan anketa savollari va unga berilgan javoblarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Chunonchi, o'quvchiga tanlash uchun 24 juftlikdan iborat o'quv topshiriqlari alternativ savolnoma tarzida taqdim etiladi. Ya'ni, tavsiya etilgan har bir topshiriqning bajarilishi o'quvchi faoliyati uchun xarakterli bo'lgan u yoki bu darajadagi munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichini belgilaydi. Masalan, "A" harfi orqali ko'rsatilgan vaziyatdagi holatlarda ko'proq ishtirok etish maylining mavjudligi (u yoki shu vaziyatning tanlanish) o'quv faolligiga nisbatan indifferent (yuzaki) munosabat motivatsiyasining ustunligidan dalolat bersa, "V" vaziyatdagi holatlarning tanlanishi esa o'quv faolligiga faol-ijobiy munosabat motivatsiyasi shakllanganligidan guvohlik beradi. Qisqacha qilib aytganda usulni qo'llash tartibi quyidagicha:

1. Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan vaziyatlar ifoda etilgan muqobil, tarzda anketa savollarining mazmun-mohiyati bilan o'quvchilarni batafsil tanishtirish.
2. 24 ta juftlik vaziyatlarni o'qish va o'rganish uchun o'quvchilarga taqdim etish va ularning har bir vaziyatni to'liq tasavvur etishlari uchun qo'shimcha tushuntirishlar olib borish.
3. Har bir ishtirokchi, har bir juftlik bo'yicha ikkala vaziyatni chuqur tasavvur qilib bo'lgan o'zi uchun ma'qul bo'lgan bittasini tanlaydi va belgilab qo'yadi. SHu tariqa 24 ta vaziyat batafsil o'rganiladi va 24 ta javob tanlanadi.
4. O'qituvchi javob varaqalarini terib oladi, uning haqqoniyligiga ishonch hosil qilgach, har bir ma'lumotni birlamchi qayta ishlash uchun kirishadi[2]..

Anketa savollarida qayd etilgan barcha javob variantlari o'quv komponentlari tizimi bo'yicha yuqoridagi tartibda belgilanadi. Ilgari ta'kidlanganidek, har bir alternativ savol raqamidagi "A" vaziyatning tanlanishi "0" ball bilan "B" vaziyatning tanlanishi esa "5" ball bilan belgilanadi. Jami 24 ta vaziyat uchun eng yuqori ball miqdori 120 ballni tashkil etadi. Shuningdek, har bir komponent uchun 8 ta vaziyat taklif etiladi. YA'ni har bir kompnent uchun eng yuqori ball miqdori jami-40 ballni tashkil etadi. Barcha komponentlar bo'yicha tanlangan "A" vaziyatlarga hech qanday ball qo'yilmaydi. Chunki, taqdim etilgan barcha "A" vaziyatlar tegishli komponentga asoslangan faol-ijobiy munosabat motivatsiyasining mavjud emasligiga, "B" vaziyatlarda esa faol-ijobiy munosabat motivatsiyasi ishtirokining mavjudligi munosabat motivatsiyasiga asoslanib tuzilgan.

Ma'lumotlarning birlamchi qayta ishlanishi.

1. Yuqoridagi talablar asosida har bir ishtirokchi uchun xarakterli bo'lgan ballar miqdori aniqlanadi.
2. Aniqlangan ballar miqdori shartli tarzda qabul qilingan munosabat motivatsiyasi shakllari (faol-ijobiy, ijobiy, indifferent) bo'yicha joylashtiriladi.
3. Har bir ob'ekt ishtirokchilaridan olingan ballar miqdori o'rtacha-umumiy ko'rsatkichlar majmuasiga birlashtiriladi. SHuningdek, o'rtacha umumiy foizlar miqdori ham belgilanadi.
4. Har bir sinf (2 va 4-sinf) o'quvchilari uchun barcha ob'ektlar misolida xarakterli masofa (diapazon) ko'rsatkichlari ham aniqlanadi va umumiy xulosalar chiqariladi.

Ikkilamchi ma'lumotlarni qayta ishlash

1. Maktabga bo'lgan motivatsiya ko'rsatkichlari korrelyatsiya tahlili uchun qayta ko'rib chiqiladi va maxsus jadvallarga kiritiladi.
2. Mavjud empirik ma'lumotlar o'rtasidagi korreliyatsion bog'lanish natijalari, ma'lumotlarning ishonchlilik qiymati maxsus qabul qilingan statistik mezonlar yordamida qaytadan ko'rib chiqiladi. (SPSS dastruri bo'yicha).

3. Barcha ma’lumotlar bo‘yicha yig’ilgan matematik statistik natijalarga tayanib umumiy qonuniyatlar aniqlanadi.

Shunday qilib mazkur birinchi yo‘nalishdagi usullar majmuasi yordamida boshlang’ich sinf o‘quvchilariga xos bo‘lgan munosabat motivatsiyasining o‘rtacha-umumiy hamda qiyosiy-tipik ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. SHu tahlillarga tayanib tadqiqot maqsadiga mos ravishda tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish mumkin. Avvalo shuni aytish kerakki, mazkur usullar majmuasi o‘quvchi shaxsi faoliyatidagi o‘quv komponentlarining qay darajada tarkib topayotganligini aniqlashga xizmat qiladi. o‘quv faolligi yoki o‘quv faolligini namoyon qilishga bo‘lgan munosabat motivatsiyasi zamirida o‘quv kompanentlarining (kognitiv, hissiy-irodaviy, baholash) ishtiroki muhim o‘rin tutadi. Ya’ni tegishli darajadagi o‘quv komponentini shakllantirish orqali o‘quv faolligi haqida gapirish mumkin[4]..

O‘quv faolligiga bo‘lgan indefferent munosabatlar o‘quvchi shaxsi ijtimoiy va intelektual taraqqiyoti imkoniyatlaridan unumli foydalanishga bir muncha halaqit beradi. Kuzatishlar shundan dalolat bermoqdagi, indifferent munosabat ko‘rsatkichlarining o‘sib borishi o‘quv faolligining pasayib borishiga yoki aksincha, indifferent munosabatlarning pasayib borishi o‘quv faolligining ortib borishiga olib keladi. Aniqlangan bu holat esa boshlang’ich sinf o‘quvchilari hamda maktab psixologlarining doimiy diqqat markazida bo‘lishini taqozo etadi. Olingan bu ma’lumotlar metodika mazmuniga mos oldingi ma’lumotlar tahlilining ob’ektivligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, boshlang’ich sinf o‘quvchilarida o‘quv jarayonlariga bo‘lgan munosabat motivatsiyasi dastavval maktab hayotiga qiziqish, maktab hayotini his etish maktab hayotiga ma’lum e’tiqodlarning shakllanishi bilan bevosita bog’liqdir. Luskanova metodikasi asosida qo‘lga kiritilgan empirik ma’lumotlar esa boshlang’ich sinf o‘quvchilaridagi maktabga munosabat darajalarining turli tumanligidan dalolat beradi. Qo‘shimcha usullar va maxsus kontent – tahlil natijalari shuni ko‘rsatyaptiki bu jarayonning kechishi ma’lum ijtimoiy – psixologik omillarga bog’liqdir. Jumladan, bolaning ilk bor o‘quvchi sifatida u yoki bu vazifalarni bajarishi, o‘z tengdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi, o‘qituvchiga bo‘lgan xayrixoxligi, oiladagi va maktabdagi an’analarga rioya qilish orqali o‘z – o‘zini baholash, o‘z – o‘zini rivojlantirib borishi, shaxs sifatida ilk bor o‘z dunyoqarashiga va ijtimoiy faolligiga ega bo‘lishi kabi holatlar o‘quvchidagi munosabat motivatsiyasi shakllanishida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘quv faolligiga bo‘lgan munosabat tizimi (faol-ijobiy, ijobiy, indifferent) motivatsiyasining shakllanishi va uning u yoki bu darajada namoyon etilishi o‘quvchi shaxsiga, psixologik ta’sir etuvchi “qiziqishlar”ga, “shaxs yo‘nalganligi” ga, “ma’lum darajadagi o‘quv ko‘rsatmalari”ga va “qadriyatlar”ga bevosita bog’liqdir. Aniqrog’i, empirik ma’lumotlar tahliliga asoslanib shuni aytish mumkinki, mazkur sifatlarning o‘quvchi shaxsida beqaror yoki barqaror holda tarkib topishiga qarab, o‘quvchining o‘quv jarayoniga nisbatan faol-ijobiy, ijobiy, yoxud indifferent munosabatlarining ifoda etilayotganligi haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Foidalanilgan adabiyotlar

1. Andreeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. - M., 1996 yil.
2. Baratov Sh.R. O‘zbekistonda psixologik xizmatni yaratishning ijtimoiy-psixologik va ilmiy-amaliy asoslari. (Psixologiya fanlari doktori dissertatsiyasining avtoreferati) – T., 1998.-37 b.
3. Barotov Sh.R. Kichkina o‘quvchilar uchun. - T.: “O‘qituvchi”, 1992. - 48 b.
4. Xalq ta'limi sharoitida shaxsni shakllantirishning psixologik asoslari - M., 1979.
5. G'oziyev E. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. - T.: "O‘qituvchi", 1994. - 224 b.